

O'ZBEK TILI FE'LLARIDA PRESUPPOZITSIYANING O'RGANILISHI

Azamat Mehmonaliyevich Toshpo'latov

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12605288>

Annotatsiya: Ushbu maqola fe'l turkumi doirasida pressuppozitsiya hodisasi yuzaga kelishga doir kuzatishlarga bag'ishlangan. Bu borada jahon tilshunoslarining ilmiy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: pragmatika, pressuppozitsiya, muloqot atvori, ijtimoiy omil, til birligi bahosi.

Annotatsiya: Dannaya statya posvyashena nablyudeniyam za vozniknoveniem sobytiya pressuppozitsii v ryadu glagolov. Analiziruyutsya nauchnye vzglyady mirovyyh yazykovedov na etot schet.

Klyuchevye slova: pragmatika, pressuppozitsii, povedenie obsheniya, sotsialnyy faktor, otsenka yazykovoy yedinitsey

Annotation: This article focuses on observations of the occurrence of a pressposition event within a series of verbs. The scientific views of world linguists on this area are analyzed.

Key words: Pragmatics, pressposition, communication skill, social factor, language unit value.

Hozirgi kunda tilshunoslikda propozitsiya xususidagi yagona ta'rif gap semantikasida ifodalangan ob'ektiv mazmundir.¹ Ma'lumki, propozitsiya turli darajadagi sintaktik struktura orqali ifodalanadi: gap orqali, oborotlar orqali, hatto sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar va grammatik shakllar ham alohida propozitsiya ifodalab, shu sodda gapni semantik murakkablashtirishi mumkin. Mazkur holatda ayrim so'z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o'zining eng ixcham shakliga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo'lishida presuppozitsiya yordamga keladi. Shuning uchun keyingi davrlarda gapning presuppozitsiya tomoni lingvistlar diqqatini ko'proq jalb etmoqda.² Shunga qaramay, presuppozitsiya turlicha talqin qilinadi.

Presuppozitsiya (prezumpsiya) tushunchasi nemis mantiqshunosi G. Frege g'oyalari bilan bog'liq. Uning ta'kidlashicha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosidir. Masalan, "Kepler bechoralikdan olamdan o'tdi", "Kepler bechoralikdan olamdan o'tmadi" gaplarida "Kepler" degan odamning yashagani haqidagi hukmga tabiiy asos mavjud. G. Frege fikricha, asosiy hukm ko'pincha boshqa yashirin hukm bilan birga keladi. U mavjudlik bildiruvchi ikkinchi darajali yashirin hukmnigina presuppozitsiya hisoblaydi.³

¹ Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Akademnashr, 2013. – Б. 43.

² Арутюнова Н. Д. Понятие презумпции в лингвистической семантике / Семантика и информатика. – М., 1977. – №8.; Богданов В. В. Семантико-синтаксическая организация предложения. – Л., 1977. – С. 135.; Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М., 1981. – С. 14.; Крейдлин Г.Е. Лексема «даже» / Семантика и информатика. – М., 1975. – №6.; Торопова Н. А. К исследованию логических частиц / ВЯ. 1978. – №5.; Махмудов Н. Презуппозиция ва гап / Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1986. – №6.; Нурмонов А. Ўзбек тилида қўмакчилик конструкциялар презуппозицияси / Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1986. – №6 ва бошқалар.

³ Семантика и информатика. – М., 1977. – №8.

E. Kenin amaliy va mantiqiy presuppozitsiyalarga ajratishni tavsiya etadi. Birinchisi soʻzlovchining individual bilimi strukturalari, ikkinchisi esa gaplar oʻrtasidagi semantik munosabatda aks etadi.⁴

L. M. Vasilev maʼno komponentlarini maʼlum maʼnoga bogʻlanish darajasiga koʻra majburiy va fakultativ (potentsial) maʼno komponentlariga boʻladi. Ulardan birinchisi maʼnoning signifikativ (semantik) aspektiga oid va uning til birligi sifatida mavjud boʻlishi uchun albatta zarur boʻlsa, ikkinchisi denotativ aspektga – presuppozitsiya planiga oidligini va bu komponent faqat nutqda presuppozitsiya anglashilishini koʻrsatadi.⁵

Olimning fikricha, fakultativ komponentlar maʼnoning semiotik imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, *xabar qildi* konstruktsiyasi maʼnosida xabar qilish usullari *aytmoq, yozmoq, telefon qilmoq, telegramma bermoq* kabi feʼllar orqali ifodalanishi mumkin boʻlgan fakultativ komponentlar mavjud. Yuqoridagi konstruktsiyada xabar qilishning qaysi usulidan foydalangani faqat presuppozitsiya plani til egalarining til haqidagi amaliy bilimlari orqali maʼlum boʻladi.

Tilshunoslikda “presuppozitsiya” terminining qoʻllanilishi P. Stroson nomi bilan bogʻlangan. U tilda implikasiyaning alohida turi bor ekanini koʻrsatadi. Implikasiyaning mazkur turi G. Fregening “tabiiy asos”iga juda yaqin talqin etiladi. Har ikki muallif presuppozitsiyani ham gaplar oʻrtasidagi semantik munosabatdan keltirib chiqaradi. Bu munosabat “X Y ni taqozo etadi” formulasi orqali koʻrsatiladi. “Meri xonani tozaladi” konstruktsiyasida “xonaning iflos ekani” presuppozitsiyasi mavjud. “Meri xonani tozalamadi” konstruktsiyasida ham shu presuppozitsiya saqlanadi.⁶

Hozirgi kunda presuppozitsiyani maʼlum jumla va u ifodalayotgan propozitsiyaning toʻgʻri tushunilishiga imkon beradigan soʻzlovchilar oʻrtasidagi “bilishning umumiy fondi”, “oldindan bilishning jami” sifatida belgilash kengroq tus olmoqda.⁷

Shuning uchun tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan maʼno tushuniladi.

Presuppozitsiya tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik substrati, yuzaga chiqish shart-sharoiti) tushunchalarini oʻz ichiga oladi.⁸ Masalan, *Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada* (A. Qahhor) jumlasidagi axborot kontekst bilan bogʻliq. Axborot temasi boʻlgan “*shaxmat*” kontekstdan maʼlum. Oldingi jumladagi gap shaxmat haqida boradi, shuning uchun yuqoridagi gap “*instruktorimiz bilan shaxmat oʻynadim*” presuppozitsiyasiga ega. Kontekstdan tashqarida presuppozitsiya uchun yoʻl yopiladi.

Kishilarning oʻzi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi koʻnikmalari natijasida ayrim soʻzlarning leksik maʼnolarida ham presuppozitsiyaga yoʻl ochilishi mumkin. Masalan, *Men Toshkentdan Samarqandga uchdim* jumlasida “*Samolyotda keldim*” presuppozitsiyasi mavjud. “*Uchdim*” soʻzining leksik maʼnosi va til haqidagi umumiy bilish fondi soʻzlovchilar uchun presuppozitsiyaga yoʻl ochadi.

⁴ Бу ҳақда қаранг: Богданов В. В. Семантико-синтаксическая предложения. – Л., 1977. – С. 135-138.

⁵ Васильев Л. М. Семантика русского глагола. – М., 1981. – С. 25.

⁶ Торопова Н. А. К исследованию логических частиц / ВЯ. – М., 1977. – С. 83.

⁷ Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М., 1981. – С. 14.

⁸ Богданов В. В. Семантико-синтаксическая организация предложения. – Л., 1977. – С. 137.

Lingvistik presuppozitsiya mantiqiy presuppozitsiyadan farqli ravishda ma'lum ifodalanish shakli – moddiy vositasi, tashqi signallariga ega. Masalan, *Karim ham keldi* jumlasida yana boshqa kimdir keldi presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu presuppozitsiyaning moddiy substrati – tashqi signali “ham” yuklamasidir.

Chunki mazkur yuklama presuppozitsiya uchun yo'l ochadi. Shuningdek, kelish harakatining yuzaga chiqish vositasi (piyoda, mashinada, otda va boshq.) ham presuppozitsiya orqali ma'lum bo'ladi.

O'zbek tilida presuppozitsiyaning moddiy substrati sifatida xilma-xil vositalar ishtirok etishi mumkin: 1) leksik vositalarning fakultativ ma'no komponentlari; 2) *hatto, faqat, yolg'iz, -gina (-gina emas), ham, tag'in, yana* yuklamalari; 3) *bo'lsa, esa* bog'lovchi vositalari; 4) *tashqari, boshqa, o'zga* (*Sendan tashqari Karim ham keldi*), *bilan, birga* (*Chiroyli bo'lish bilan birga aqlli ham edi*), *o'rniga* (*O'qish o'rniga o'ynaydi*) ko'makchilari va h.k.

Presuppozitsiya sintaktik konstruksiyalarning ma'no aspekti bilan uzviy bog'liq.

V. V. Bogdanov presuppozitsiyaning gap semantikasi aspekti ekanini ta'kidlaydi.⁹ N. D. Arutyunova ham presuppozitsiya “so'zlovchilarning umumiy bilish fondi”, “ularning oldindan kelishuvi” sifatida gap semantikasiga kirishini ko'rsatadi.¹⁰ Keyingi tadqiqotlarda pragmatika semantikadan ajratilib, presuppozitsiya pragmatika tarkibiga kiritilmoqda.

Tadqiqotchilar presuppozitsiyani turlicha tasniflaydilar. Jumladan, V. G. Gak presuppozitsiyaning quyidagi turlarini ko'rsatadi: 1) keng presuppozitsiya; 2) tor presuppozitsiya; 3) lingvistik presuppozitsiya.

Keng presuppozitsiya ostida kishilarning o'zini qamrab turgan ob'ektiv reallik haqidagi universal bilimi tushuniladi. Ob'ektiv borliqdagi har bir predmetning tipik, xarakterli xususiyati, ma'lum narsaga moslanishi mavjud. Predmetlarning ana shunday xususiyatlarini tavsiflashda konkret ma'noli so'z umumiyroq so'z bilan almashinishi yoki butunlay tushib qolishi mumkin. Ammo so'zlovchi va tinglovchi bir-birini to'g'ri tushinishi uchun uning tushib qolishi hech qanday rol o'ynamaydi. Masalan, *shofyor* haqida gap ketganda, so'zlovchi va tinglovchi, eng avvalo, uni mashina haydovchisi deb biladi. Shuning uchun *Shofyor mashinani tez haydadi* jumlasida *mashina* so'zi tushib qolsa-da, ma'noga putur yetkazmaydi.

Tor presuppozitsiya ostida esa faqat ma'lum vaziyat doirasidagina ro'y beradigan presuppozitsiya tushuniladi. So'zlovchilarning shu tilni bilish tajribasi natijasida kelib chiqadigan presuppozitsiya lingvistik presuppozitsiya hisoblanadi.¹¹

E. V. Paducheva presuppozitsiya (prezumptsiya)ning ikki turini ko'rsatadi:

1) semantik prezumptsiya – bu yolg'onligi gapning semantik chalaligiga olib keladigan semantik komponent; 2) pragmatik prezumptsiya – bu gapning shunday komponentiki, so'zlovchi uning normal qo'llanishida tinglovchi uchun ma'lum deb hisoblaydi.¹²

N. A. Toropova ham presuppozitsiyani ikki guruhga bo'ladi:

1) zidlanuvchi a'zolar presuppozitsiyasi; 2) kutilgan presuppozitsiya.

⁹ Богданов В. В. Семантико-синтаксическая организация предложения. – Л., 1977. – С. 137.

¹⁰ Арутюнова Н. Д. Понятие презумпции в лингвистической семантике / Семантика и информатика. – М., 1977. – №8. – С. 85.

¹¹ Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М., 1981. – С. 14.

¹² Падучева Е. В. О семантике синтаксиса. – М., 1974. – С. 109.

Shunday qilib, bugunga qadar presuppozitsiyaning bir belgiga asoslangan, hamma e'tirof etuvchi aniq tasnifi mavjud emas. Presuppozitsiya tushunchasi assertsiya (tasdiq) tushunchasi bilan bog'liq.

N.A.Toropova presuppozitsiya va assertsiya o'zaro "aniqlik-noaniqlik" belgisiga ko'ra farqlanishini ko'rsatadi. Presuppozitsiya gapning kontekstga xoslangan ma'nosi, assertsiya esa unga bog'liq bo'lmagan ma'nosidir. Masalan, predikat ot *artist* so'zining presuppozitsiyasi sub'ektiv semantik belgisiga muvofiq keladi. Qiyoslang: *Bu yerda bir "artist" bor* jumlasidan mantiqan ikki tasdiq kelib chiqadi: 1) bu yerda bir odam bor; 2) bu odam ustomon (yolg'onchi).

Tahlil qilinayotgan gap tarkibidagi ot semantikasi tasniflovchi va xarakterlovchi belgilarni o'z ichiga oladi. "Artist" (yolg'onchi, ustomon ma'nosida) so'zida "odam", "yoshi kattaroq", "erkak kishi" semalari tasniflovchi belgilar hisoblanadi.

Bu odam artist jumlasida "odam" ma'nosi "artist" so'zining taksonomik belgisida mavjud. Shuning uchun uning bevosita qo'llanishi presuppozitiv funktsiya emas, balki assertiv funktsiya bajaradi.

Bu yerda artist bor tipidagi mavjudlik bildiruvchi gaplardagi otning barcha semantik komponentlari butun jumla uchun xarakterlidir. Shunday qilib, tasniflovchi belgilar ekzistentsional ma'lumot uchun ahamiyatlidir. Uning xarakterlovchi belgilari esa sub'ektga xarakteristika beruvchi axborot uchun qimmatli.

Presuppozitsiya gapning aktual bo'linishi bilan ham ma'lum darajada bog'lanadi. Ayniqsa, ularning aloqasi sintaktik konstruktsiya tarkibida mantiqiy urg'u ostidagi fokus orqali namoyon bo'ladi.

V. V. Bogdanovning ta'kidlashiga ko'ra, agar gapda fokus bo'lsa, u bir vaqtning o'zida rema hisoblanadi. Odatdagi sharoitda rema o'z ichiga bir va bir necha so'zlarni birlashtirishi mumkin, fokus esa ularni minimumgacha qisqartiradi. Masalan, *Men qiziq kitoblarni o'qiyman* jumlasida *qiziq* so'zi fokus bo'lsa, u rema, boshqa so'zlar esa tema hisoblanadi. SHu bilan birga, fokus doimo presuppozitsiya ta'sir doirasida turadi. Xususan, mantiqiy urg'u *qiziq* so'ziga tushgan yuqoridagi jumladan *boshqa kitoblarni o'qimayman* presuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Aktuallashishning boshqa vositalari: so'z tartibining o'zgarishi yordamida aktuallashish, leksik va grammatik vositalar yordamida aktuallashish va boshqalar ham presuppozitsiya bilan chambarchas bog'liq. Bularning hammasi aktual bo'linishi bilan presuppozitsiya tushunchalarining bir-biri bilan murakkab aloqasi haqida guvohlik beradi.

Shunga qaramay, aktual bo'linish va presuppozitsiya shakliy va mazmuniy jihatdan o'zaro farqli belgilarga ega.

V. V. Bogdanov fikricha, ularning shakliy farqlari shundan iboratki, presuppozitsiya uchun minimum ikki predikat ifodaning bo'linishi, ularning biri ikkinchisi ichida yashirin holda mavjud bo'lishi xarakterlidir. Masalan, *Karim uy quryapti* predikat ifodasi ichida yashirin holda *uy qurilyapti* predikat ifodasi mavjud. Ikkinchi ifoda birinchisining presuppozitsiyasidir. Aktual bo'linish komponentlari esa bir predikat ifoda doirasida ajratiladi.

Ular o'rtasidagi mazmuniy farq shundan iboratki, aktual bo'linish ma'lum va yangilarni jumla tarkibidan ajratishga mo'ljallangan. Ma'lum shu jumlani oldingi jumlagacha bog'lab, tekst yasash uchun xizmat qilsa, yangi shu jumla ma'nosini olg'a siljitadi. Presuppozitsiya esa

gapning funktsional tomoni bilan bog'lanmaydi. Aktual struktura gapning shakliy tomonini ham qamrab olsa, presuppozitsiya bunday xususiyatga ega emas.

Ma'lumki, so'zdagi yetakchi morfema – asos. U semantik yadroga ega, leksik ma'no ham unga bog'liq va qo'shimcha morfemalar ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Lekin bu birinchi qarashda shunday. Professor L. V. Shcherba talabalarga so'zning nafaqat asosi, balki har bir qismi ahamiyatli ekanligini tushuntirish uchun quyidagi “jumla”ni havola etadi: *“Glokaya kuzdra shteko budlanula bokra i kurdyachit bokryonka”* va mana shu g'ayriodatiy sintaktik qurilma asosida morfemikaning roli va ahamiyatini tushuntirib beradi.¹³ “Jumla”da “grammatik elementlarni” aktual jihatdan ajratish mumkin, lekin presuppozitsiya mavjud emas. Demak, gapning aktual bo'linishi va presuppozitsiya o'zaro bog'liq hodisalar bo'lsa-da, ammo ular o'rtasida mazmuniy va shakliy tomondan muhim farqlar bor.

*Shu bolani jinim suymaydi. Ko'rarsan, bir kun senga **pand berib qo'yadi**.* (S. Ahmad, “Jimjitlik”) fe'l shaklidagi iboraning kelasi zamonda ifodalanishi orqali *“bolaga ishonch yo'q”, ilgari ham pand bergan edi*” kabi presuppozitsion ma'nolar anglashilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, fe'l so'z turkumi o'zining rang-barang shakllari, cheksiz pragmatistik imkoniyatlari, nutqiy vaziyatni o'zgartira olish xususiyati bilan boshqa so'z turkumlaridan ancha ustun ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi va bu holat tadqiqotchilar oldiga yangi-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yaveradi.

References:

1. Rajapova, M., & Sheraliyeva, N. (2022). Teaching english through fairytales. Scientific Research Results in Pandemic Conditions (COVID-19), 1 (06), 186-189. Retrieved from.
2. Rajapova, M., & Sheraliyeva, N. (2022). Teaching english through fairytales. Scientific Research Results in Pandemic Conditions (COVID19), 1 (06), 186-189.
3. Nishonova, S. M., Sheraliyeva, N. A. Q., & Satimova, H. K. (2021). THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 958-965.
4. Rajapova, M., & Sheraliyeva, N. (2020). Teaching english through fairytales. *Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19)*, 1(06), 186-189.
5. Ganiyevich, M. T., & Saminovna, M. D. (2023). Factors in The Formation of a Healthy Lifestyle Among University Students. *Journal of Advanced Zoology*, 44(5).
6. Ganievich, M. T. (2023). STUDYING PHRASEOLOGY IN UNIVERSITIES. *Confrencea*, 12(12), 122-127.
7. Mirzaliev, T. G. (2022). The effectiveness of the use of innovative methods in teaching Russian language and literature. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11(12), 296-298.
8. Mirzaliev, T. G. (2023). SCIENTIFIC TEXT AS A SOURCE OF ENRICHMENT OF PROFESSIONAL SPEECH. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(3), 84-88.
9. Tajiyeva, F., & Mirzaliyeva, D. (2020, November). HIGH ALTITUDE DISTRIBUTION OF

¹³ <https://ruskiymir.ru/publications/269970>

ENDEMIC SPECIES OF THE GENUS SCUTELLARIA L. IN THE FLORA OF UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 57-59).

10. Dilfuza, M. (2023, June). EXPLORING THE BENEFITS OF BILINGUALISM IN EARLY CHILDHOOD. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

11. Ganiyevich, M. T., & Saminova, M. D. (2023). Factors in The Formation of a Healthy Lifestyle Among University Students. *Journal of Advanced Zoology*, 44(5).

12. Saminova, M. D., & Solijanovna, M. D. (2021). Integrated Approach to Russian Language Lessons. *Academicia Globe*, 2(04), 179-182.

13. Aliyeva, Y. D. (2023). Translational problems of adjectives from English into Uzbek.

14. Aliyeva, Y. D., & Omarovna, S. G. (2023). LEXICAL CONVERSION AND ITS REALIZATION. *Gospodarka i Innowacje*, 36, 346-350.

15. Aliyeva, Y. D. (2023). CATEGORIZATION OF LANGUAGE UNITS. *Gospodarka i Innowacje*, 36, 343-345.

16. Aliyeva, Y. D. (2023). THE ISSUE OF THE SUBJECT AND ITS RELATION TO SYNTACTICS AND SEMANTICS. *Gospodarka i Innowacje*, 36, 214-217.